



## TOVUQ, KURKA VA SESARKA EXINOZTOMIDOZLARI

**Suxrob Rabbimov<sup>1</sup>**<sup>1</sup>“ISFT” instituti o’qituvchisi**KALIT SO‘ZLAR**

Trematoda, nematoda, tovuq, kurka, sesarka, gelmint, lichinka, Lymnaea palustris, Lymnaea stagnals, Radix ovata, R.auricularia, L.palustris, Planorbis.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Трематода, нематода, курица, индейка, цесарка, гельминт, личинка, Lymnaea palustris, Lymnaea stagnals, Radix ovata, R.auricularia, L.palustris, Planorbis.

**KEY WORDS**

Trematode, nematode, chicken, turkey, guinea fowl, helminth, larva, Lymnaea palustris, Lymnaea stagnals, Radix ovata, R.auricularia, L.palustris, Planorbis.

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekistonning shimoli-sharqi qismida tarqalgan tovuqsimonlarning exinostomidoz kasalligi va ushbu kasallikni keltirib chiqaruvchi gelmintlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлены сведения о широко распространенном в северо-восточной части Узбекистана заболевании кур эхиностомидозом и гельминтах, вызывающих данное заболевание.

**ABSTRACT**

This article provides information about the disease of chickens with echinostomiasis and the helminths that cause this disease, which is widespread in the northeastern part of Uzbekistan.

**Kirish.** O‘zbekiston qushlar faunasining tarkibiga tog‘ va tekislik ekosistemalarida yashaydigan tovuqsimonlar turkumi vakillari kiradi. Hozirgi vaqtida tovuqsimonlar respublikamizning deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, tabiiy jarayonlarda va inson hayotida muhim rol o‘ynaydigan yovvoyi va xonaki turlardan iborat. Har xil turdag‘ fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladigan tovuq, kurka, sesarka va bedanalar ko‘plab patogenlarni yuqtirishi mumkin bo‘lgan parhez mahsulot hamda ekto- va endoparazitlar manbayi hisoblanadi. Shu sababli parazitofaunaning hozirgi holatini hamda dominant turlari va tovuqsimonlar ekt- va endoparazitlari guruhlari ekologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini baholash, parazitar kasalliklar majmuyining oldini olish usullarini takomillashtirish katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Hayvonlarning gelmintlar bilan zararlanishi tirik va o‘lgan hayvonlar o‘rganiladigan tadqiqot usullari yordamida aniqlanadi. O‘lgan hayvonlarni tekshirish tadqiqot usullari eng ishonchli

hisoblanadi, ammo har doim ham qo‘llanavermaydi, zero faqat o‘ldirilgan yoki o‘lik hayvonlarda qo‘llanishi mumkin. Tovuqsimonlarning iqtisodiy ahamiyati yuqori, shu sababli tadqiqotimiz ularni o‘ldirish emas, aksincha hayotini saqlab qolishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotimizni olib borishda zoologik, gelmintologik, parazitologik, ekologik tadqiqotlarning klassik va zamonaviy usullari hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalananilgan.

Tirik hayvonlarda o‘tkazilinadigan tadqiqot usullaridan foydalaniib, hayvonlarning gelmintlar bilan qay darajada zararlanganligini turli holatda aniqlash mumkin, ayrim hollarda tashxis turga, boshqa holatlarda esa faqat jinsi yoki yoshiga qarab aniqlanadi.

**Natijalar.** Tovuqsimonlar hajmi turlicha, ularning tanasi zich, oyoqlari kuchli bo‘lib, yurishga va ovqatlanish paytida axlat yoki tuproqni titishga yaxshi moslashgan. Yovvoyi tovuqsimonlarda ko‘krak mushaklari juda yaxshi

rivojlangan. Ular tez, lekin qisqa masofalarga uchishadi. Patlari qisqa, zich, ko‘p turlarida patlarining parli qismi yaxshi rivojlangan va qo‘shimcha o‘qi mavjud. Ular yerga uya quradi va uy qurishdan oldin gala bo‘lib yashaydi. Tovuqsimonlardan faqat bedanalar haqiqiy ko‘chmanchi qushlardir, qolganlari esa o‘troq yashaydi yoki tartibsiz mavsumiy migratsiyalarni amalga oshiradi. Deyarli barcha tovuqlar o‘txo‘r bo‘lib, yoz mavsumida ko‘plab hasharotlar va boshqa umurtqasiz hayvonlarni ham iste’mol qilishi mumkin. Shimoliy-sharqiy O‘zbekiston sharoitida tarqalgan tovuqsimonlarning turmush tarzi va oziq-ovqat ratsioni, shubhasiz, parazitofaunaning shakllanishi va invaziya sirkulyatsiyasida o‘z izini qoldiradi.

Tadqiqotlarimizda 927 ta tovuqsimon qushlar o‘rganilgan bo‘lib, ulardan 530 tasi gelmintlar bilan zararlanganligi aniqlandi. Umumiy zararlanish 57,2% ni tashkil etdi, Sestoda, Trematoda va Nematoda sinflariga mansub parazit chuvalchanglarning 37 ta turi topildi.


Parazit turlarning umumiyligi sonidan (37) uy tovuqsimonlarida 30 ta, yovvoyi tovuqsimon qushlarda 27 ta turi qayd etilgan. Bu qushlar guruhlari uchun gelmintlarning 21 ta turi keng tarqalgan. Ulardan sestodalar – 7 tur: Davainea proglottina, Raillietina echinobothrida, R. tetragona, R. penetrans, Skryabinia cesticillus, Echinolepis carioca, Choanotaenia infundibulum. Aniqlangan trematoda turlari orasida umumiyligi yo‘q edi. Nematodalardan Capillariidae, Acuaridae, Ascarididae, Heterakidae va Tetrameridae oilalarining 15 ta turi vakillari topildi. Bu tovuqsimonlarning o‘rganilgan guruhlari uchun umumiyligi gelmintlar ekanligi ma’lum bo‘ldi. 37 ta turning umumiyligi sonidan uy tovuqsimonlarida 81,1% aniqlangan.

Asosiy materialni Shimoliy-sharqiy O‘zbekiston (Toshkent, Sirdaryo, Jizzax

viloyatlari) tovuqsimonlar turkumiga kiruvchi uy va yovvoyi qushlar gelmintlari va ektoparazitlarining sifat va miqdoriy to‘plamlari tashkil etdi. Ekto- va endoparazitlar 2020–2023-yillarda belgilangan 3 ta viloyat tumanlaridan yig‘ildi. Yilning barcha fasllarida uy tovuqsimonlari (tovuq, kurka, sesarka), yovvoyi tovuqlar (kaklik, kulrang kaklik, bedana, qirg‘ovul) esa ov mavsumida ovlandi. Shu bilan birga, ularni tutishda professional ovchilar xizmatidan foydalanildi.

Exinostomidozlar – gelmintozlar Echinostomatidae oilasiga mansub trematodalar guruhi sanalib, O‘zbekistonning shimoliy-sharqiy qismida tarqalgan tovuq, o‘rdak, kurkalarining ichaklarida parazitlik qiladi. Bizning kolleksiyamizda bu trematodalar turli avlodlarga mansub 4 ta tur bilan ifodalanadi. Echinostoma avlodining turlari eng keng tarqalgan.

Tovuq exinostomidozining qo‘zg‘atuvchisi 2–12 mm, maksimal kengligi 0,88–2 mm bo‘lgan kichik trematodalardir (1-rasm)



**1-rasm. Echinostoma revolutum. A – тукум, B – босх қисми, D – умумий ко‘ринishi.**

- Sinf: trematoda rudolphi – 1808;
- Turkum: echinostomida szidat – 1936;



- Kenja turkum: echinstomata szidat – 1936;
- Oila: echinostomatidae railliet – 1895;
- Avlod: echinostoma rudolphi – 1809;
- Echinostoma: revolutum frochlich – 1802;
- Xo‘jayinlar: tovuq, kurka;
- Lokalizatsiyasi: ichak;
- Topilgan joyi: hamma joyda;
- Biologiyasi: rivojlanishda oraliq xo‘jayinlar, – chuchuk suv mollyuskalari ishtirokida sodir bo‘ladi. Ular birinchi va ikkinchi oraliq xo‘jayinlar vazifasini bajaradi [5].

Boshning yoqasi 35-37 ta tikancha bilan qurollangan. So‘rg‘ichlar (bosh, qorin) yaxshi rivojlangan.

Rivojlanish ikki oraliq xo‘jayin – suv mollyuskalari (Lymnaeidae, Planorbidae va boshqalar) ishtirokida boradi. Birinchi oraliq xo‘jayin – mollyuskalarda lichinkalar bosqichi rivojlanib, serkariylar hosil bo‘ladi.

Exinostomatidaning serkariylari (masalan, Echinostoma revolutum) mollyuska zararlanganidan 49-80 kun o‘tgach, rediyadan chiqib, bir muddat suvda suzadi va keyin ikkinchi oraliq xo‘jayining kirib boradi, ularning rolini ham mollyuskalar yoki suvda yashovchi hasharotlar, amfibiyalar, baliqlar va boshqa hayvonlar bajaradi. Serkariya ikkinchi oraliq xo‘jayinning tanasiga kirib, dumini tashlab, sistaga o‘raladi. Kiritilgan lichinkalar metaserkariylar deyiladi. Qushlar metaserkariylar paraziti bilan zararlangan mollyuskalar, itbaliqlar va qurbaqalarni yeb, exinostomatidlar bilan kasallanadi. Qushlarning tanasida bu trematodalarning rivojlanish muddati 5-18 kunni tashkil etib, bu davr ichida ular jinsiy voyaga yetadi [5].

Tovuqsimon qushlarning zararlanishi yilning issiq davrida, bahorning oxiridan kech kuzgacha davom etadi. Tovuqsimonlar gelmintofaunasida ko‘p uchraydigan parazitlarning poliksen turlari ba’zida o‘ziga xos fiziologik emas, balki ekologik

xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Gelmintlarning qushlarni zararlashi tovuqsimonlarning ekologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Parazitlar hayotida ularning asosiy xo‘jayin tanasida joylashishi katta ahamiyatga ega.

Parazitizmning tabiatiga ko‘ra, ko‘rib chiqilayotgan gelmintlarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Ichak parazitlari. Ular ichak devorining yo‘lida yashaydilar. Ushbu lokalizatsiya topilgan barcha sestodalar, trematodalarining Echinostomatidae, Plagiorchiidae, Notoctylidae oilalari va nematodalarining Ascarididae, Heterakidae, Subuluridae, Capillariidae kabi oilalari uchun xosdir.

- Muskulli oshqozon parazitlari. Parazitlar bu organning kutikulasi ostida joylashadi. Bunga Acuaria, Dispharynx avlodni vakillari kiradi.


- Ko‘z soqqasi parazitlari. Voyaga yetgan Oxyspirura schulzi nematodasi ko‘z konyunktivi qopchasida parazitlik qiladi.

- Siyidik tanosil tizimining parazitlari. Ular fabritsiy xaltasi va tuxum yo‘lida yashaydi (Prostogonimus avlodining vakillari).

- Teri osti to‘qimalarining parazitlari. Splendidofilaria avlodining voyaga yetgan vakillari shunday lokalizatsiyaga ega.

Biologik siklning tabiatiga ko‘ra, tadqiqotlarimiz natijasida qayd etilgan gelmintlarni 2 guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh oraliq xo‘jayinlar ishtirokida rivojlanishini amalga oshiradigan gelmintlarni qamrab oladi. Ikkinchi guruhga oraliq xo‘jayinlar ishtirokisiz hayot siklini davom ettiradigan turlar kiradi. Bizning materialimizda parazitlarning ikkala guruh vakillari ham mavjud. Shimoli-shargiy O‘zbekiston hududlarida tovuqlar, kurkalar va sesarkalarning umumiylari zararlanishi 8,5% dan 21,6% gacha yetib boradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, exinostomatidalar barcha

yoshdagи qushlarda uchraydi, lekin eng yuqori zararlanish (21,6%) 2-3 oylik yosh parranda va polaponlarda kuzatiladi (2-rasm).



**2-rasm. *Echinostoma revolutum*. Rivojlanish siklining sxemasi.**

### ***Echinostoma miyagawai Ishii – 1932***

- Xo‘jayinlar: tovuq, kaklik.
- Lokalizatsiya: ingichka va to‘g‘ri ichak.
- Topilgan joyi: shimoli-sharqiy O‘zbekiston

- Biologiyasi: bu trematodanining rivojlanish sikli birinchi marta Nevostrueva tomonidan o‘rganilgan. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, *Lymnaea palustris* hamda *Lymnaea stagnalis*, qo‘shimcha ravishda *Radix ovata*, *R.auricularia*, *L.palustris*, *Planorbis chuchuk* suv mollyuskalari, bundan tashqari, qurbaqalar (*Rana temporaria*) bu gelmintning oraliq xo‘jayini hisoblanadi. Qushlar ushbu trematodanining metaserkariyalari bilan zararlangan mollyuskalar va itbalilqlar bilan oziqlanib, bu parazitlarni yuqtirib oladi [6].


**Muhokama va xulosa.** Ushbu maqolada tovuqsimonlarda uchraydigan gelmintlar keltirib chiqaradigan kasalliklar haqida ma’lumot keltirib o‘tdik. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pchilik zararlangan hayvonlarda ikkidan to‘qqiz turgacha gelmintlar qayd etilgan bo‘lib, invaziyaning qo‘shilgan shakllari bilan tavsiflanadi.

Gelmintologik kompleks asosan bog‘langan guruhlar – gelmintosenozlar shaklida qayd etilgan. Assotsiatsiyalar gelmintlarning 2-9 turi bilan ifodalanadi. Eng keng tarqalganlari 3-, 4- va 5-turdagi assotsiativ guruhlar bo‘lib, ular sestodalar, trematodalar va nematodalardan iborat.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Азимов Д.А., Меркутов Е.Н., Шакарбаев Э.Б., Исакова Д.Т., Голованов В.И. Болезни птиц. Справочник. – Ташкент, 2012. – 245 с.
2. Акрамова Ф.Д., Раббимов С.Ш., Шакарбаев У.А., Джанабаев А., Арапбаев И.М., Азимов Д.А. Эколого-фаунистический анализ гельминтов птиц – домашних и диких курообразных Узбекистана // Российский паразитологический журнал, 2021. – № 15 (2). С. 11-16.
3. Петроченко В.И., Котельников Г.А. Гельминты птиц. – М.: Колос, 1976.
4. Остапенко М.М., Назаров А.П. Отряд курообразные – Galliformes. Птицы Узбекистана. – Ташкент, 1987. Том. 1. – С. 247-273.
5. Рыжиков К.М., Губанов Н.М., Толкочева Л.М. и др. Гельминты птиц Якутии и сопредельных территорий. Цестоды и trematodes. – Москва, 1974. – 340 с.
6. Черткова А.Н., Петров А.М. Гельминты домашних куриных птиц и вызываемые ими заболевания. Трематоды и цестоды. – Москва, 1959.





[www.jurnal.isft-ilm.uz](http://www.jurnal.isft-ilm.uz)